

**PVA**



**U33**

**YELIMI**



PVA U33 yelimidan – qog`oz, karton, teri va matolardan tayyorlangan buyumlarni yelimalashda foydalani

### **Kimyoviy tarkibi**

Plastifikatorli va modifikatsiyalovchi komponentlar mavjud bo`lgan polivinilasetat dispersiyasi

### **Xususiyatlari**

- Yelimalanadigan materiallarga oson surtiladi
- Qatlamning shaffofligi va yuqori egiluvchanligi
- Mexanik qorishtirishlarga barqaror
- Suv va ishqorga chidamli

- Suvga nisbatan oz singdiruvchan
- Zaharli emas, quriganidan so`ng qatlam o`zidan zararli moddalar chiqarmaydi
- Tez va mustahkam yopishish va oz fursat ichida qotish xususiyatiga ega
- Quriganidan so`ng yog`ochdan ham mustahkam bo`lgan qattiq-egiluvchan yelimi

### **Qo`llash sohalari**

PVA U33 quyidagilarni tayyorlashda universal bog`lovchi hisoblanadi:

- Qog`oz, karton, yog`och, fanera va ip gazlama matolarga yelim sifatida, gofraka
- Suvli emulsiya bo`yoqlarida bog`lovchi sifatida
- Kraxmallash vositalarini ishlab chiqarishda
- Polimertsement, polimerbeton va pol uchun choksiz qoplovchilar tayyorlashda b
- Muqova va jildlov ishlarini ishlab chiqarishda yelim sifatida

- Oziq-ovqat mahsulotlarini yelimga tegmaslik sharti bilan o'rashga mo'ljallangan
- Oyoq-kiyim uchun karton ishlab chiqarishda yelimlovchi modda sifatida
- Mebel sanoati uchun yelim ishlab chiqarishda bog`lovchi sifatida

### **Mahsulot tarkibi**

PVA U33 yelimining TSh 64-15329272-01:2003 (№1,2,3,4 O`zg. bilan) va GOST 18992-80 bo'yicha asosan:

Tashqi ko`rinishi

Zarrachalar o`lchami 1+3 mkm.li, quyqa va boshqa qo'shimchalarsiz bo`lgan oq rangli quyuq suyuqlik.

Qattiq modda tarkibi

30 %

Dispersianing dinamik quyuqligi

2.0 - 15.0 mPa•s

pH ko`rsatkichi

3.3 – 6.0

Sovuqqa chidamliligi, davr, (muzlashi - erishi) kam emas

Sovuqqa chidamli emas

Yelimlash qobiliyati

300 (0.3) kgs/sm

Plastifikator

Ishtirok etgan

**Qatlam tarkibi** 

Qatlamning tashqi ko`rihishi

Shaffof

Egiluvchanlik

Yaxshi

Ishqalanishga qarshilik

Yuqori

Yorug`likka chidamlilik

Mustahkam

**Qayta ishlash**

PVA U33 yelimidan foydalanishdan avval, uni bir turdag'i massa hosil bo`lguncha qorishtirish yoki chayqash lozim. Yelimanadigan yuzani changdan, smolali, yog`li dog`lardan va boshqa kirlardan tozalash darkor. PVA U33ni yelimanadigan yuzaning bir qismiga yupqa qatlam asosida surtib, qolgan qismi bilan yopishtirish va biroz siqib turish kerak. Yelimlash mustahkamligiga talab yuqori bo`lganda, yelimni har bir yuzaga surtish lozim bo`ladi. Imkon boricha press ostiga qo`yish talab etiladi. Yelimning sarf xarajati yelimanadigan yuzaning tuzilishiga qarab  $1m^2$  ga 50-300 gr.ni tashkil qiladi. Tavsiya qilingan havo harorati  $+10^{\circ}C$  dan past, nisbiy namlik esa 80% dan yuqori bo`lmasligi kerak.

### **Xavfsizlik**

### **Umumiy**

Qayta ishlash jarayonida samarali havo almashinuvni hamda terini himoyalovchi vositalar va himoya ko`zoynagi ta`minlangan bo`lishi zarur. Mahsulot teriga/ko`zga tekkan hollarda, terini/ko`zni zudlik bilan toza suv bilan yaxshilab yuvib tashlash lozim. PVA U33 yelimi yong`indan xavfsiz. Zaharli xususiyat- lariga ko`ra 3 – guruhga kiradi, ya`ni xavfsiz modda hisoblanadi.

### **Saqlash**

PVA U33 yelimi zinch yopilgan idishda havo harorati  $+5^{\circ}C$  dan past bo`limgan quruq xonada saqlash tavsiya qilinadi. Uni kuchli qizishiga va muzlashiga yo`l qo`ymaslik zarur. Kafolatlangan saqlash muddati ishlab chiqarilgan kundan boshlab 12 oyni tashkil qiladi.

## O`ram

Korxona tomonidan ishlab chiqarilgan barcha PVA yelimlar, og`irligi 0.8 kg.li zamonaviy polietilen idishlarga va sanoat idishlariga: hajmi 40 dan 60 kg.gacha bo`lgan polietilen bochka yoki hajmi 200 kg.li po`lat bochkalarga, hamda xaridorlar bilan kelishilgan holda boshqa idishlarga ham qadoqlanadi.

## Yuk tashish

PVA U33 yelimi zich yopilgan polietilen bochkalarda, +5 °C dan past bo`limgan havo haroratida tashiladi.